TURK ELI

International Scientific Journal



Volume 1 | Special Issue Part 1 | 2026

Manas, Kyrgyz Republic

www.turkeli.science

TURK ELI
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

The journal is officially registered as a mass media outlet by the Justice Department of Manas Region under the Ministry of Justice of the Kyrgyz Republic in accordance with Registration Certificate No. 10339 dated March 11, 2024. The journal is registered under the title “TURK ELI” International Scientific Journal and is authorized for publication in Kyrgyz, Turkish, Uzbek, Kazakh and English languages.

Honorary President
Sarvar Ispahi

Editor-in-Chief
Jenishbek Duysheev

Deputy Editor in-Chief
Rahmonali Hasanov

Editorial Board:

Ablat Khodjaev (Prof. Dr.)
Shakimashrip Ibraev (Prof. Dr.)
Shohistahon Uljaeva (Prof. Dr.)
Kubanychbek Kalchakeev (Prof. Dr.)
Abdimajid Madraimov (Prof. Dr.)
Shukhrat Sattorov (Prof. Dr.)
Ibrahim Kush (Dr.)
Faig Elekberli (Dr.)
Erdenebayar Nasanbat (Dr.)
Gulnara Anarbaeva (Dr.)
Nurgul Aldabek (Dr.)
Nurjamal Myrzabaeva (Dr.)
Takhirjan Kazakov (Dr.)
Elmira Hazratkulova (Dr.)
Azamat Kaliev (Dr.)
Abdulvakhidkhon Nuriddinov (Dr.)

About this Special Issue

This Special Issue presents selected papers from the International Scientific Conference
Ijtimoiy fanlar va jamiyat taraqqiyoti:
barqaror rivojlanishning strategik yo‘nalishlari

Technical Editor
Laziz Baxtiyorov

Publisher: turkeli.science
E-mail: editor@turkeli.science


TOSHKENT IQTISODIYOT VA TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
TITU
TOSHKENT – 2022
TOSHKENT IQTISODIYOT VA TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
IJTIMOIY FANLAR FAKULTETI
IJTIMOIY FANLAR VA JAMIYAT TARAQQIYOTI:
BARQAROR RIVOJLANISHNING
STRATEGIK YO‘NALISHLARI
GLOBAL MIQYOS
STRATEGIYA VA TARAQQIYOT
ILM-FAN VA INNOVATSIYA
JAMIYAT VA INSON KAPITALI
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
ILM-FAN ORQALI BARQAROR KELAJAK SARI
2026-yil 15-may

Contents

A. A. Djumanqulov *A. A. Beknazarov*	Psychological and Methodological Principles of Effective Lesson Time Management by Teachers	6
B. A. Khasanova *R. Abdullaev*	Digital Transformation in Central Asia: An Assessment Based on the Case of the Kyrgyz Republic	8
Yu. Akhmedov	The Strategic Importance of Crisis Communication in Ensuring National Stability in Polyethnic Societies	13
O. F. Egamberdiev	The Role, Determinants, and Effectiveness of Marketing Strategies in the Sustainable Development of the Transport System: Evidence from the Khorezm Region	17
R. Sh. Ibrahimova	Development History of Parasitology in Azerbaijan	20
B. O. Turaev	Ali Qushchi: The Scholar Who Introduced the Achievements of Ulugh Beg's Academy to the World	22
H. Hamidov	The History of Artists during the Reign of Amir Temur and the Timurid Period	26
S. Dj. Saidova	National Costume as a Historical and Spiritual Phenomenon	30
K. M. Yuldoshev	Innovation in Education	33
A. S. Kaliev *N. B. Bazarbaev*	Political Development and the Transformation of Civil Identity in Uzbekistan: The 690th Anniversary of Amir Temur and the Politics of	36
K. M. Yuldoshev *Z. Murodova*	Rabat-i Malik Caravanserai: A Key Waystation on the Great Silk Road	39
D. S. Saparboeva	Features of the Development of Logical Thinking in Primary School Mathematics Lessons	42
Sh. O. Sayfullaeva	Developing Reading Skills through Authentic Texts in Teaching Russian as a Foreign Language	44
N. Kh. Kholyigitova	The Role of Personal Values–Oriented Career Planning in Higher Education for Societal Development	46
M. N. Inatov	The Application of Sociological and Historical Analysis Methods in Letter Analysis	48
M. G. Nazarova	Socio-Psychological and Educational Strategic Directions for Preparing Future Engineers for Professional Activity in the Context of Societal Development	51
I. H. Jabrayilov	Common Turkish History: Research and Teaching Issues	54
O. V. Kon	Preparing the Next Generation of Social Educators in Higher Education: A Competency Model in the Context of Global Societal Challenges	56
D. A. Egamberdieva	The Semantic Characteristics of Nature Symbols in Uzbek and English Fairy Tales	60
Q. H. Inoyatov	The Scientific Legacy of Our Great Ancestors as a Source of Education and Moral Values	64
A. J. Toshboboev	The Integration of Social Sciences and the Education System for Sustainable Societal Development: An Analysis of Historical and Contemporary Approaches	66
G. B. Ernazarov	The Role of the Service Sector in the National Economy: Significance, Economic Analysis, and Strategies for Improvement	69
Ə. M. Zeynalov	Azerbaijan in French Literature	72
K. M. Gulomova	The Role of Modern Pedagogical Technologies in Enhancing Teachers' Professional Competence	76
S. Ibrohimov	Culture and Historical Heritage as Economic Resources: Innovative Management and Strategies for Sustainable Growth	79
J. O. Kucharov	Enhancing Workforce Potential in Small Business Enterprises in Uzbekistan	82

The Application of Sociological and Historical Analysis Methods in Letter Analysis

Inatov Murot Niyatovich (Candidate of Historical Sciences, Acting Professor)[1]

[1.] Tashkent State Technical University
Tashkent, Uzbekistan

Abstract.
The article pertains to the source studies (historiography) direction of historical research and examines the role of letters sent by Uzbeks to official institutions as an important historical source in studying the Soviet-era history of Uzbekistan. It also highlights issues related to analyzing these letters using sociological and historical research methods.
Keywords: source studies, quantitative analysis, historical analysis, research methodology, land and water reform, decree, poor peasant, trader, tax, real estate, laborer

Xatlarni tahlil etishda sotsiologik va tarixiy tahlil usullarini qo‘llash

Inatov Murot Niyatovich (tarix fanlari nomzodi, professor v.b.)[1]

[1.] Toshkent davlat texnika universiteti
Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya.
Maqola tarixiy tadqiqotlarning manbaashunoslik yo‘nlishiga doir bo‘lib, unda O‘zbekistonning sovet davri tarixini o‘rganishda muhim manba sifatida o‘zbekistonliklarning rasmiy tashkilotlarga yo‘llagan xatlarini tarixiy manba sifatidagi o‘rni va xatlarni sotsiologik va tarixiy tahlil usullaridan foydalangan holda tadqiq etish masalalari yoritiladi
Kalit so‘zlar: manbaashunoslik, miqdoriy tahlil, tarixiy tahlil, tadqiqot usuli, yer-suv islohoti, dekret, kambag‘al dehqon, savdogar, soliq, ko‘chmas mulk, batrak

Ma’lumki, tarixiy tadqiqotlar jarayonida manbaalar muhim ahamiyatga ega. Manbaalarning turlari ham ko‘p va xilma-xil. Tarixiy jarayonlarni tadqiq va tahlil etishda fuqarolarning xatlarini o‘rganish yangi turkum manbaalar qatoriga kiradi. Ayniqsa yaqin o‘tmish tariximizga oid jarayonlarni o‘rganishda rasmiy tashkilotlarga O‘zbekistonliklarning yo‘llagan xatlarini tadqiqot ob’ekti sifatida o‘rganilishi bizga tarixiy tadqiqotlar jarayonida sovet jamiyatininig noma’lum bo‘lgan ayrim jihatlarini tahlil etishda ahamiyatli sanaladi. Shundan kelib chiqib, XX asrning yigirmanchi yillari ikkinchi yarmida Sovet tuzumi tomnidan yuritilgan siyosat, ayniqsa qishloq xo‘jaligi, uni jamoalashtirish, quloq qilish bilan bog‘liq ma’lumotlar tarixiy jarayonlarni tahlil etishda fuqarolarning rasmiy tashkilotlarga yo‘llagan xatlari muhim manbaa sanaladi.

Xatlar barcha davrlarda, xususan sovetlar davrida ham odamlar va davlat organlari o‘rtasida ularni bog‘lovchi vosita bo‘lib xizmat qilgan. Odamlar tegishli davlat organlariga barcha masalalar bo‘yicha o‘z fikrlarini bayon qilishgan, takliflar berishgan, shikoyat tariqasida murojaat qilishgan va h.z.

O‘tgan asrning 20-yillari Vatanimiz tarixining murakkab va ziddiyatli davralaridan sanaladi. Bu sovet jamiyatida xususiy mulkka tajovuz, jamiyatda ziddiyatlarning kuchayib borishi, bolsheviklar tomonidan o‘z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida har qanday choralarni qo‘llashga tayyorlik va boshqalar. Sovet davri rasmiy manbaalarida mavjud tuzum tomonidan yuritilgan siyosat rasmiy hujjatlarda to‘g‘ri va asosli deb baholanadi. Ammo xalq tomonidan yaratilgan hujjatlar, xususan fuqarolar tomonidan rasmiy tashkilotlarga yuborilgan xatlar, murojaatlar, shikoyatlar bularning aksini ko‘rsatadi. Shundan kelib chiqqan holda fuqarolarning rasmiy tashkilotlarga yo‘llagan xatlari tarixiy manba sifatida juda qimmatli ekanligi yuqorida ko‘rsatilgan ma’lumotlarda aks etadi.

Xatlarni o‘rganish orqali nafaqat o‘sha davrdagi aholida yuzaga kelgan norozilik kayfiyati, ayni paytda jamiyat hayoti bilan bog‘liq ko‘plab qimmatli ma’lumotlarni ham olish mumkin bo‘ladi. Buning uchun xatlarni tahlil etishda manbashunoslikning ikki usulidan foydalanish samarali bo‘ladi. Bulardan biri sotsiologik tadqiqot usuli bo‘lib, kontent tahlil - ya’ni miqdoriy tahlil usuli bo‘lsa, ikkinchisi tarixiy tahlil usulidir. Bu ikki usul beradigan ma’lumotlar bir-birini to‘ldiradi va bir butunlikni beradi.

Xatlarning majmuasi yuzasidan amalga oshirilgan miqdoriy-tahlil natijalari tadqiq qilinayotgan davrda mualliflar kontingentining soni va ijtimoiy tarkibini aniqlash, har bir ijtimoiy guruh haqida umumlashgan demografik ma’lumotlar olish, bu guruhlarni tashvishga soladigan muammolarni aniqlashtirish, muammolarning yillar bo‘yicha tarkibini belgilash, alohida olingan bir ijtimoiy guruh nuqtai nazaridan, ijtimoiy hayotning alohida olingan bir sohasi misolida u yoki bu muammolarning jamlama ma’lumotlari yakuniga erishish mumkin. Buning uchun xatlarning axborot imkoniyatlarini aniqlashda manbashunoslik usullarini qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Manbashunoslik usulning mantig‘iga muvofiq, manbani, ya’ni xatlarni, tahlil qilishning birinchi bosqichda, mualliflik muammosini o‘rganishga alohida e’tibor qaratildi.

Bu yo‘nalishdagi tadqiqot muammolarining ahamiyatini ta’kidlab o‘rganilayotgan manba haqida shuni qayd etish kerakki: “Dastlab uning muallifini tushunmay, biografiyasini, amaliy faoliyati sohasini, madaniyati va bilimi darajasini, kasb turini, ma’lum bir ijtimoiy-madaniy jamoaga mansubligini bilmasdan turib, manbani talqin qilish qiyin” [1].

Manbalarning aytilgan yig‘indisiga mualliflarning manfaatlari, maqsad va qarashlari, faolligi ko‘rinishlari, maqsad yo‘nalishlari kabi vazifalarni aniqlashni ham kiritib, xatlarning matniga murojaat qilamiz. Bu yerda bizga mualliflar tarkibining ijtimoiy mansubligi haqidagi sifatiy - miqdoriy tahlil natijalari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yana shu

bilan muhimki, mualliflarning u yoki bu guruhga mansubligi ularning o‘z ijtimoiy holatlari haqidagi ma’lumotlaridan kelib chiqilgan.

Miqdoriy - tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, mualliflar tarkibining asosiy qismini (barcha mualliflar sonining 81% ga yaqinini) dehqonlar tashkil qiladi. Ulardan 2,6% o‘zlarini kambagal dehqonlar, 0,5% o‘rtahol dehqonlar va salkam 78% o‘zlarini “mehnatkash - dehqon” guruhiga mansub deb ataganlar.

Xatlar bilan yaqindan tanishish, ulardagi ma’lumotlarni jiddiy tahlil qilish natijasida shunday taassurot hosil bo‘ladiki, bu tushunchalar o‘rtasida xat mualliflarining o‘zlari jiddiy farq ko‘rmaganlar, unga ayricha ma’no bermaganlar. O‘ylaymizki, bu tushunchalarning qo‘llanilishi dehqonlarning ijtimoiy ongida rasmiy siyosat va rasmiy hujjatlar tug‘dirgan vaziyat bilan bog‘liq. Mavjud siyosat ta’sirida dehqonlar o‘zlarini hukumat ayrim imtiyozlar bergan ijtimoiy guruhlardan birontasiga mansub deb hisoblashni ma’qul ko‘rganlar, aniqrog‘i yoqtirganlar.

Masalan, 2 dekabr 1925 yilda O‘zSSR MIQsi maxsus dekret bilan yer va suvni milliylashtirdi, ya’ni davlat mulki deb e’lon qildi. Unga ko‘ra qishloq xo‘jaligi maqsadlarida yer va suvdan foydalanish huquqi “yerga o‘zi va oila a’zolari mehnati bilan ishlov berishni istaydigan, jinsi va millatidan qa’tiy nazar mehnatkash dehqonlar hamda ularning uyushmalariga beriladi”gan bo‘ldi. [2] Garchi dekretda undan keyin mehnatkash dehqonlarga yer har bir rayon uchun alohida belgilangan “mehnat normalari” [3] asosida ishlov berish uchun biriktiriladi, deb ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, dehqonlar o‘zicha mansubiyligidan kelib chiqib, yerga ishlov berishda yer egasining shaxsiy hamda oilaviy mehnat prinsiplaridan kelib chiqdilar. Bu yerning miqdoriga ular ahamiyat berishmadi.

Haqiqatan, masalan, o‘zlarini “kambag‘al-dehqon” guruhiga mansub deb hisoblagan M. Niyozmuxamedov (Namangan uezdi, 1926) o‘zining e’tirofi bo‘yicha 45 tanob [4] yerga ega bo‘lgan, bu miqdor uning rayoni uchun belgilangan mehnat normasidan ancha ortiq; X.Hafizov (Yuqori Darg‘om rayoni, Samarqand okrugi, 1930) 14 tanob yerga ega bo‘lgan[5].

Yer maydonlarining bunday taqsimlanishi o‘zlarini o‘rtahollar guruhiga mansub hisoblagan dehqonlar uchun ham xosdir. Jumladan, X.Nishambaev (Andijon uezdi , 1926 yil) “meros bo‘yicha otasidan 140 tanob yer olgani va unga shaxsan o‘zi ishlov bergani, soliqlarni o‘z vaqtida to‘lagani” haqida xabar berib, “men, ajdodlarim ijtmoiy holatiga ko‘ra o‘rtahol dehqonlar toifasidan kelib chiqqanman. Men va otam o‘z shaxsiy mehnatimiz bilan yashaymiz, doimo o‘ziga to‘q kishilar qatorida hisoblanganmiz”[6], deb tasdiqlaydi.

Samarqand okrugida yashovchilar, aka-uka Hamitxanovlar o‘z xatlarida (1927 yil) quyidagilarni qayd etadi: “Bizning oilamiz yana 4 ta oilaga bo‘linadi. Hammamiz 27 jondan iboratmiz. Bizning bor-yo‘g‘i 10 tanob yerimiz bor edi. Bu yerga ko‘p yillar davomida biz o‘z mehnatimiz bilan ishlov berib kelganmiz va shu orqali tirikchilik qilganmiz... yerning unumdorligi va xo‘jaligimizning yuqori hosildorligi tufayli biz o‘rtahol hisoblanganmiz”.[7] Xuddi shu Samarqand okrugidan B. Berdiyorov o‘zining o‘rtahol dehqon ekanini tasdiqlab (1929 yil), 2 botmon yerga egaligi haqida xabar beradi.[8] Buxoro okrugidan (1930 yil) X. Xudoyarovning xati ham uning fikrini deyarli aynan takrorlaydi: “Men o‘zim o‘rtahol dehqonman, 8 tanob yerga egaman”[9], ya’ni bu raqam 2 botmonga teng.

yer maydonlariga egalik bo‘yicha yo‘llangan xatlarda guruh sanog‘i bo‘yicha 3 tanobdan tortib 200 tanob va undan ziyodroq yerga ega bo‘lganlar o‘zlarini “mehnatkash dehqon”lar deb hisoblaganlar va ular eng ko‘p miqdorni tashkil qiladi.[10]

Bu va shunga o‘xshash faktlar kuzatilayotgan davrda dehqonlar sovet davlatining sinfiy qarashlariga ma’qul bo‘lishlari uchun o‘zlarini rasmiy hukumat e’tirof etgan ijtimoiy tabaqalar hamda guruhlarga mansub deb hisoblashni ma’qbul topganlar va bu ularning o‘z ijtimoiy mansubliklarini belgilashlarida ham o‘z ifodasini topgan.

Ayni paytda ushbu faktlar, aslida mualliflarning barchasi - dehqonlar ishlov beradigan yer maydonlari ularning iqtisodiy imkoniyatini belgilaydigan asosiy ko‘rsatkich ekanligi, ular shaxsiy xo‘jalik egalari bo‘lganligini ko‘rsatadi. Garchi rasmiy hukumat yerning milliylashtirilgani va uning faqat dehqonlarga biriktirilishi haqida e’lon qilgan bo‘lsa ham, dehqonlarning asosiy qismi o‘z tushunchalarida ularga ota-bobolaridan meros sifatida o‘tgan yerlarni o‘z shaxsiy mulki deb hisoblashni davom ettirdilar.

Masalan, Namangan uezdidan (1926 yil) bir oila shunday deb yozadi: “Oilamiz 13 jondan iborat, biz faqat o‘z yerida yashayotgan kishilar sifatida dehqonchilik orqali kun ko‘ramiz, asosan o‘z kuchimizdan, qisman boshqalarning yollanma mehnatidan foydalanamiz”. Xuddi ana shu uezdan 1926 yilda Muhammad Yusuf Xo‘jamuhammad Alixo‘jaev o‘zining yetmish yoshda ekani, qaramog‘ida 8 kishi borligi haqida xabar berib yozadi: “ularni otamdan meros qolgan 32 tanob yerda dehqonchilik hisobiga boqaman”.[11]

Dehqonlarning o‘z mulklariga bu tarzda egaligining kelib chiqishi haqida nisbatan keyingi vaqtlarda yozilgan xatlarda ham ma’lumotlar beriladi. Jumladan, 1929 yil pochta xatlaridan Kattaqo‘rg‘onlik dehqonga 3 tanob yer maydoni ota-bobolaridan meros bo‘lib qolgan, Xo‘jandlik dehqon va uning bolalariga esa 30 tanob yer uchastkasi xotinining vafotidan so‘ng meros bo‘lib qolganini ta’kidlaydi.[12]

Shu narsa diqqatga loyiqki, tadqiq qilinayotgan davrda shaharliklarning ham yer maydonlari egalari sifatida dehqonchilik bilan faol shug‘ullanishlari davom etgan. XIX asrning oxiri - XX asrning boshlarida O‘rta Osiyo, jumladan Farg‘ona vodiysidagi shahar tuzilishining bunday o‘ziga xosligi haqida etnograf - elshunos S. Gubaeva ham xabar beradi:

“Shahar aholisining asosiy qismini amaldorlar, xizmatchilar, hunarmandlar, savdogarlar tashkil etsa ham,- deb yozadi u, shahar qishloq bilan o‘z munosabatini yo‘qotgan emas. Shahardagi har bir xonadon egasi hyech bo‘lmaganda kichikkina tomorqa uchastkasiga ega va bu unga tirikchilik ko‘rishi uchun qo‘shimcha manba bo‘lib xizmat qiladi. Shaharliklarning ma’lum bir qismi shahar tashqarisida ham yer uchastkalariga ega bo‘lib, qishloq xo‘jaligi ishlari mavsumida butun oilasi bilan o‘sha joyga kelgan. Bu yerda turli mevalar va sabzavotlar yetishtirishib, qishga g‘amlab qo‘yishgan, sigirlarni saqlashgan, qo‘ylarni boqishgan”.[13]

Fuqarolarning xatlarini bu taxlitda tadqiq etilishi, sovetlar tomonidan mamlakatda o‘rganilayotgan davrda yuritilgan siyosat har doim ham rasmiy hukumat tomonidan e’lon qilingan ma’lumotlarga mos kelavermaslgini ko‘rsatadi. Bunga yuqorida tahlil etilgan xat mualliflari tomonidan bayon etilgan ma’lumotlar guvohlik beradi. Demak, fuqarolarning rasmiy tashkilotlarga yo‘llagan xatlari tarixiy haqiqatni aniqlashda tarixiy manba sifatida muhim ahamiyatga ega ekanligiga guvoh bo‘lamiz.

References

1. Istochnikovedenie: Teoriya. Istoriya. Metod. Istochniki rossiyskoy istorii, M., 1998, 131-b
2. Pravda Vostoka, 1925, 4 dekabrya.
3. “Mehnat normasi” eski sug‘orma okruglar bo‘yicha quyidagicha belgilanadi: Farg‘ona okrugida 7 desyatina, Samarkand va Toshkenda –10 desyatinada, Zarafshonda -9 desyatina, Qashqadaryo, Surxandaryo va Xorazmda 3ga (2,8 desyatina).
4. Tanob - yer maydoni an’anaviy o‘lchami - 1/6 ga, botmon 4 - 5 tanopga teng.
5. O‘zbekiston Milliy arxivi, F-86, op.1, d.3993, 50 varaq; F- 95, op.1, d. 2262. 86 varaq.
6. O‘zbekiston Milliy arxivi,F-86, op.1, d.3964, 275-276 varaqlar
7. O‘zbekiston Milliy arxivi. op.1, d.3994, 170-171-varaqlar.

8. O‘zbekiston Milliy arxivi. f. R - 837, op.6, d.513, 124-varaqlar.
9. O‘zbekiston Milliy arxivi. f. R - 86, op.1, d.6473, 106-varaq.
10. O‘zbekiston Milliy arxivi. f. R - 86, op.1, d. 3665, varaq. 64; varaq. 248; d. 3994, varaq. 172; d.3993, varaq. 428-varaq.
11. O‘zbekiston Milliy arxivi, F-86, op.1, d.3993, 25, 37, 427-varaqlar.
12. O‘zbekiston Milliy arxivi, d. 4001, 128, 204-varaq.
13. Gubayev a S. S. Naselenie Ferganskoy dolinы v konse XIX - nachale XX vv. (Etnokulturnie protsessi). - T., 1991. 15-b.